



**O'zbekiston Respublikasi
xalq ta'limi vazirligi**

**Namangan tuman xalq ta'limi
muassasalari faoliyatini metodik
ta'minlash va tashkil etish bo'limiga
qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim maktabi
boshlang'ich sinf o'qituvchisi
BEKMURADOVA DILBAROYNING
matematika fanidan bir soatlik ochiq**

Dars ishlanmasi

Namangan tumani

Ushbu dars ishlanmasi Namangan tuman xalq ta'limi muassasalari faoliyatini metodik ta'minlash va tashkil etish bo'limiga qarashli 37-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi Bekmurodova Dilbaroy tomonidan tayyorlangan.

Muallif: Bekmurodova Dilbaroy – Namangan tuman 37-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Taqrizchi: M.Nasriddinova- Namangan tuman XTMTFMT va TE bo'lim boshlang'ich sinflar metodisti

Mazkur dars ishlanmasi Namangan tuman XTMTFMT va TE bo'limi uslubiy kengashining 2013 yil _____oyidagi ____-sonli qarori bilan tasdiqlanib, foydalanish uchun tavsiya etilgan.

1-sinf uchun 1 soatlik dars ishlan

Dars mavzusi: 2 amalli masalalar

Ta'limiy maqsad: 2 amalli masalalar haqida oquvchilarga tushuncha berish, oquvchilarning fikrlash faoliyatlarini oshirish, masalar yechish usullarini o'rgatish va bilimlarini boyitish.

Tarbiyaviy maqsad: Oquvchilarni matematika faniga qiziqtirish, shahrimizni gullab yashnayotganligini tushuntirish hamda masalalar yechishga qiziqtirish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Oquvchilarning bilim, malaka va konikmalarni oshirish.

Dars turi: Yangi bilim beruvchi.

Dars uslubi: Sayohat, musobaqa, savol-javob va hayotiy personajlardan o'rinli foydalanish.

Dars jihozlari: Matematika darsligi, didaktik materiallar, magnitli doska, televizor hamda DVD, testlar banki.

Darsning borishi: Oquvchilar 2 guruhga bolinadilar. "Qadr-qimmatim va iftixorimsan mustaqil O'zbekiston" shiori ostida "Epchillar" va "Chaqqonlar" musobaqasi otkiziladi.

"Salomlashuv" she'ri:

So'zlarning eng shirini,
Ochiq aytay sirini,
Odob bog'in sharbatin,
Qalb gavharin qimmatin,
Qo'l berib shu so'z bilan.
Dillar qulfin ochamiz,
Aql nurin sochamiz –
Qaysi shirin so'z ekan?

Hamma: - Assalomu alaykum!

O'qituvchi: - Aziz bolajonlar, bugungi matematika darsimizni biz ona yurtimiz Namangan shahrining kongil ochar joylariga sayohat qilib, shaharni avtobusda aylanamiz. Avtobusga chiqishimizdan oldin chipta olishimiz kerak. Buning uchun esa 2 ta guruh topshirilgan vazifani hal etishi lozim. 1-guruh savatdagi sabzavotlarning orqasidagi misollarni yechib, magnit taxtasidagi quyonchalar yoniga yopishtiradi.



2-guruh esa yong'oq daraxti maketidagi, yong'oqlar orqasidagi misollarni yechib, olmaxonning yoniga qo'yadi.



Ikkala guruh misollarni yechishga kirishdi. 2-guruh tez va to'g'ri yechdi. 1-guruh esa 1 ta xatoga yo'l qo'ydi. Shunday bo'lsa-da, chipta qo'lga kiritildi. 2-guruh 1-shart uchun rag'batlantirildi. Demak sayohatimiz "O'lkashunoslik" muzeyini tomosha qilish bilan boshlanadi. Men muzeydagi tarixiy obidalar haqida o'quvchilarga ma'lumot beraman.



Bu tarixiy obidani tomosha qilib bo'lgach, yana avtobusda sayohatni davom ettiramiz. Yo'l-yo'lakay yana bir qiziqarli shart: o'quvchilar qay darajada matematik atamalarni puxta bilishlarini sinaymiz. Plakatda atamalar bo'g'inlarga ajratib yozilgan. O'quvchi shu bo'g'inlarni biriktirib, atamani to'g'ri ayta olishi kerak. Qaysi guruh o'quvchilari faol ishtirok etishsa, o'sha guruh shart g'olibi hissoblanadi. O'quvchilar bu shartni ham bajarishdi. Bunda 1-guruh o'quvchilari shart g'olibi bo'lishdi.

Sayohatimiz "Zaxiriddin Muhammad Bobur" bog'i tomon davom etadi. Men bu inson va shu ko'ngil ochar joy haqida o'quvchilarga ma'lumot beraman.



*Zahiriddin Muhammad
Bobur*

Endigi 3-shartimiz ham shu tarixiy bog' bilan bog'liq. Hozirgi kunda Namangan ko'chalari yanada chiroyli, bo'lishi uchun gullar va nihol ko'chatlar ekilmoqda.



- Endi biz sizlar bilan nihol ko'chatlarni ekamiz. Men "Matematika" darsligidagi 5-misolni og'zaki aytaman. Javobni to'g'ri topgan guruh o'quvchisi plastilin yordamida nihol ko'chatini yer maketiga yopishtiradi. O'yin shu tariqa davom etadi.

Bunda o'quvchilarning og'zaki hisobda qanchalik chaqqonligi sinaladi. Bu o'yinda 1-guruh ishtirokchilari ko'proq nihol ko'chatini ekishdi. Shu sababli ular 3-shart g'olibi bo'lishdi. Darvoqe, ularni "Zaxiriddin Muhammad Bobur" rasmi chizilgan kartochkalar bilan baholab bordim. Yana sayohatimiz davom etadi. Dono xalqimizda bir hikmat bor: yurt farovonligini bilay desang, uning bozorlariga boq. Shunday ekan, biz parranda bozoriga tashrif buyuramiz.

Shu o'rinda magnitofon tasmasida "Jo'jalarim" qo'shig'i eshittiriladi va ikkala guruhdan bittadan ikki o'quvchi jo'ja kiyimini kiyib, raqsga tushadi. O'quvchilar bilan parranda to'g'risida suhbat o'tkazilgach, darslikdagi 6-masala yozma ishlanadi.

Masala ikki amalli bo'lgani uchun bir necha usulda yechib ko'rsatiladi.

Tovuq -15 ta
O'rdak -3 ta kam
Jami -?

Yechish: 1-usul.

- 1) $15-3=12$ (ta)
- 2) $15+12=27$ (ta)

2-usul.

$$(15-3)+15=27 \text{ (ta)}$$

Javob: jami 27 ta

Masala ishlangach, sayohat davom ettiriladi. Hozirgi kunda Prezidentimiz tomonida bolalar sportiga katta e'tibor berilmoqda. Shu sababli "Paxlavon" sport majmuasiga sayohat qilamiz.



96- rasm.

- U yerda o'quvchilarga bolalarning qanday sport turlari bilan shug'ullanishlari haqida aytib o'tamiz. Guruhdagi qiz bolalar bir-birlariga koptokni otib, she'r aytadilar. O'g'il bolalar esa futbol o'yinini o'ynaydilar. Bunda o'yingoh maketi, ikkala guruhda 8tadan ishtirokchi, har bir ishtirokchilar oldida koptoklar, koptoklar orqasida esa "Amallar ishorasini qo'yish" ga doir misollar: $7 \ 2 \ 1=8$. Har bir guruhdagi o'g'il bola koptokchalar orqasidagi misollarni yechib, raqib guruh darvozasiga koptokchani tashlaydi. Bu shartda qaysi guruh o'quvchilari yutsa, o'sha guruh shart g'olibi bo'aldi. Bunda 1-guruh qizlari she'r bahsida g'olib chiqishdi, ammo o'g'il bolalar yutqazishdi. 2-guruhda esa aksincha. Shu sababli bu shartda durang natija bo'ldi.

Endi o'quvchilar bilan test ishlaymiz. Mening qo'limda test savoli va javoblari. Javoblar 3 xil rang ostida berilgan: qizil, ko'k, qora. Savol va javob o'qilgach, o'quvchi to'g'ri javob qaysi rang ostida ekani topadi va o'sha rangni ko'taradi. Masalan: Simba qaysi ertak qahramoni?

Qizil rangda: "Sohibjamol va maxluq";

Ko'k rangda: "Qirol sher";

Qora rangda: "Buratino".

O'yin shu tariqa davom etadi. Bunda 2-guruh ishtirokchilari g'olib bo'ldi.

Sayohatimiz davom etadi. Keyingi sayohatimiz "Hayvonot bog'i"



tomon davom etadi. Bu yerda o'quvchilarni ko'proq qiziqtirgan jonivor "Tovus" bo'ldi. Tovus o'zining chiroyli qanotlarini ochganda yanada go'zal bo'lib ketadi. "Tovus" surati chizilgan plakatda tovus qanotidagi kartochkalar orqasida misollar berilgan. Qaysi guruh ishtirokchilari misollarni to'g'ri bajargan bo'lsa, shart g'olibi bo'ladi. Bu o'yinda 1-guruh ishtirokchilari g'olib bo'ldi.

Quvnoq raqs "Binafsha" guruhining "Lola" qo'shig'iga men bilan birgalikda tushiladi.

Begona so'z o'yini, bunda charxpalak maketi yordamida o'ynaladi. Charxpalakning bir tomonida uy hayvonlari va yovvoyi hayvonlar. 2-tomonida meva va poliz ekinlari surati chizilgan. Guruhdan ishtirokchilar chiqib, charxpalakni aylantiradilar. Qaysi meva yoki poliz ekiniga tushsa, savollar beriladi. Masalan: 1)Bo'ri. 2)Tulki 3)Ot. 4)Ayiqlar. Bu so'zlar orasida qaysi so'z begona va nima uchun. O'quvchilar savollarga javob beradilar. G'olib guruh taqdirlanadi. Bu o'yinda ikkala guruh ham barobar javob berishdi. Endi esa, darslikdagi 8-masala og'zaki bajariladi.

Darslikdagi 9-masala poliz mahsulotlari yo'g'risida. Masala yozma bajariladi.

Qovun – 10 kg

Tarvuz – 3 kg yengil

Ikkalasi - ?

Yechish: $(10-3)+10=17$ (kg)

Javob: 17 kg

Shu tariqa sayohatimiz oxirlab bormoqda. Sayohatimiz so'ngida har bir guruhdagi kartochkalar sanaladi: 1-guruhda -6ta, 2-guruh -5ta. Demak 1-guruh o'quvchilari g'olib bo'ldi. Sayohat darsi ham o'z nihoyasiga yetdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Boshlang'ich ta'lim jurnali

Darsliklar

Matematika o'qitish metodikasi qo'llanmasi